



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING KORRUPSIYA BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH

Gadoymirodov Bekzod Obidjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

Suyunov Sardorbek Dustmurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, uning turlari, kelib chiqish sabablari hamda jamiyat va davlat taraqqiyotiga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, profilaktika inspektorining o'рни va vazifalari tahlil qilingan. Mahalla darajasida korrupsiyaning oldini olish mexanizmlari va jamoatchilik nazoratining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda huquqiy tarbiya va shaffoflik muhimligini asoslaydi.

Abstract. This article highlights the concept of corruption, its types, causes, and negative impact on the development of society and the state. The role and responsibilities of law enforcement agencies, in particular, the prevention inspector, in the fight against corruption were also analyzed. Mechanisms for preventing corruption at the mahalla level and the importance of public control are revealed. The study substantiates the importance of legal education and transparency in the formation of an intolerant attitude towards corruption.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, profilaktika inspektori, antikorrupsion madaniyat, jamoatchilik nazorati, shaffoflik, huquqbuzarliklarning oldini olish.

Keywords: corruption, bribery, prevention inspector, anti-corruption culture, public control, transparency, crime prevention.

Korrupsiya - shaxsiy manfaat ko'rish maqsadida hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish bo'lib, u pora olish, noqonuniy boylik orttirish yoki qarindosh-urug'chilik yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu davlatga bo'lgan ishonchni yo'qotadi va jamiyat taraqqiyotini to'xtatib qo'yadi. Korrupsiya poraxo'rlik, tarafkashlik va pora berish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi hamda qonuniy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi. Biroq, unga qarshi kurashish turli darajalarda kompleks yondashuvni talab etadi.

Korrupsiya oqibatlari mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotining barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat butun jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki mamlakat milliy xavfsizligiga ham tahdid solishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi, bir qator boshqa davlatlar singari, jinoyat qonunchiligida korrupsiyaga ta'rif bermaydi, biroq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qismlar normalari jinoiy korrupsiyaning umumlashtirilgan ta'rifini yaratishga imkon beradi. Shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning turlarini sanab o'tadi: pora berish va olish, poraxo'rlikda vositachilik qilish, mansabdor shaxslarga pora berish, tijoriy poraxo'rlik va boshqa huquqbuzarliklar.

Korrupsiyaning bir nechta turlari mavjud bo'lib o'lar quyidagilardan iborat:

- maishiy korrupsiya;
- xususiy sektordagi korrupsiya;
- davlat organlardagi korrupsiya.

Maishiy korrupsiya asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida keng tarqalgan.

Xususiy sektordagi korrupsiya xususiy sektor hamda hokimiyat vakillarining tadbirkorlik subyektlari Davlat organlardagi korrupsiya bilan munosabatlarida uchraydi.

Davlat organlardagi korrupsiya davlat boshqaruv organlari, siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida uchraydi.

Korrupsiyaning jinoyatining vujudga kelishida uchta asosiy sababni keltirish mumkin. Jumladan:

- iqtisodiy;
- institutsional;
- ijtimoiy-madaniy.

Iqtisodiy – davlat xizmatchilarining past oylik maoshi, ularning tadbirkor va fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda yuqori vakolati.

Institutsional – davlat idoralari ishidagi yopiqlik, hisobotlar tizimidagi qo'shib yozishlar, qonunchilik tizimida shaffoflikning yo'qligi.

Ijtimoiy-madaniy – jamiyatning intizomsizligi, fuqarolarning tartibsizligi va axborotga ega emasligi, jamoatchilikning faol emasligida namoyon bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi ta'limning dolzarbligi yosh avlodning ushbu illatga nisbatan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarurati bilan bog'liq.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi global korrupsiyaga qarshi kurash jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari mustahkamlanib bormoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash muntazam o'zgarish va yangilanishlarni talab qiladi. Shu bois, oldimizda bu qabih yovuzlikdan xalos bo'lish uchun bir qator muhim vazifalar turibdi. Xususan, yosh avlodning huquqiy savodxonligi va ongini rivojlantirish, halollik, poklik, to'g'rilik ko'nikmalarini singdirish orqali korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish shular jumlasidandir⁷.

⁷ <https://strategy.uz/index.php?news=1683>

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishlari bu boradagi huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim o‘rin tutadi.

Ayniqsa korrupsiyaga qarshi kurashni avvalo mahalla hududida profilaktika inspektori va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda olib borish ijobiy samara beradi.

Profilaktika inspektorining korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishdagi faoliyati ikki asosiy yo‘nalishda, ya‘ni tashqi va ichki yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Tashqi yo‘nalish aholi hamda tashkilotlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi muhitni shakllantirishni nazarda tutsa, ichki yo‘nalish inspektorning o‘z xizmat vazifalarini halol, shaffof va qonun doirasida bajarishini ta‘minlashga qaratilgan.

Avvalo, profilaktika inspektori mahallada korrupsiyaga qarshi muhitni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratadi. Bu jarayonda aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlari olib borilib, korrupsiya uchun nafaqat pora olish, balki pora berish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi tushuntiriladi. Shuningdek, fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat xizmatlaridan qonuniy va porasiz foydalanish ko‘nikmalarini targ‘ib qilish orqali antikorrupsion madaniyatni yuksaltirishga erishiladi. Profilaktika inspektori fuqarolar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar va ijtimoiy so‘rovlar orqali mahalladagi davlat idoralari yoki tashkilotlarda korrupsiya holatlari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlaydi.

Shu bilan birga, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tahlil qilish profilaktika inspektorining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Profilaktika inspektori o‘z hududida yer ajratish, uy-joy masalalari, moddiy yordam va subsidiyalar berish kabi korrupsiyaga moyil sohalarni doimiy nazoratda ushlaydi. Hududdagi tashkilot rahbarlari va mansabdor shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazib, ularni korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik haqida rasmiy ogohlantiradi. Shuningdek, korrupsiyaga moyil shaxslar yoki xavfli sohalar haqida to‘plangan ma‘lumotlarni belgilangan tartibda yuqori turuvchi organlarga yoki tegishli xizmatlarga yetkazadi.

Profilaktika inspektori o‘z xizmat vazifalarini bajarishda shaffoflikni ta‘minlash orqali ham korrupsiyaning oldini oladi. Buning uchun xizmat faoliyati davomida bodi-kameradan foydalanish, fuqarolar bilan muloqot va huquqbuzarliklarni rasmiylashtirish jarayonlarini to‘liq qayd etish amalga oshiriladi. Ma‘muriy bayonnomalar elektron tizimlar orqali rasmiylashtirilib, jarimalarni noqonuniy tarzda “kelishib yo‘q qilish” imkoniyati bartaraf etiladi. Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida, agar huquqbuzarlik yaqin qarindosh yoki tanish tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, profilaktika inspektori bu haqda rahbariyatga xabar berib, ishni boshqa xodimga o‘tkazadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham profilaktika inspektorining muhim faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U mahalla raisi, hokim yordamchisi va boshqa jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda



byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini kuzatadi. Shuningdek, fuqarolardan kelib tushayotgan tamagirlik yoki vakolatni suiiste'mol qilishga oid murojaatlarni zudlik bilan ro'yxatga olib, qonuniy tartibda chora ko'rilishini ta'minlaydi.

Agar korrupsiya holati aniqlansa, profilaktika inspektori voqea joyini muhofaza qilish, dalillarni qayd etish va zudlik bilan ichki ishlar organining navbatchilik qismiga yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalariga xabar berishga mas'ul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektori korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazolovchi emas, balki ogohlantiruvchi va profilaktik bo'g'in sifatida muhim o'rin tutadi. Uning faoliyatida shaffoflik, halollik va aholi bilan ochiq muloqot korrupsiyaning oldini olishdagi eng samarali vositalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2017;
3. Islomov B., Qodirov A. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy va tashkiliy asoslari. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2020;
4. BMT. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasi. — Nyu-York, 2003.

